

LOY – DEVORGA AYLANISH YO'LIDA: O'QUVCHI SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MEHRLI YONDASHUV

Alimova Nazokatxon Sunnatullayevna

Toshkent Iqtisodiyot va Texnologiyalar Universiteti 2- bosqich talabasi

nazokatxon775@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xalqona hikmat – “Loy suvsiz qolsa chang, mehr bilan pishsa devor” iborasi asosida inson tarbiyasi va shaxs shakllanishining chuqur ma’naviy-psixologik mohiyati yoritilgan. Unda loy inson timsolida, suv esa bilim va mehrning ramzi sifatida talqin qilinib, yosh avlod tarbiyasida mehr, sabr va e’tiborning beqiyos ahamiyati ochib berilgan. Muallif bu ibora orqali pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning tarbiya jarayonidagi mas’uliyatini, yoshlar shaxsiyatining shakllanishida ijtimoiy muhit, axloqiy fazilatlar va psixologik yondashuvlarning hal qiluvchi rolini ta’sirchan tarzda bayon etadi. Maqola yoshlarda mustahkam ijtimoiy pozitsiya, yuksak ma’naviyat va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda tarbiyaning mehr asosidagi kuchini alohida ta’kidlaydi.*

Kalit so’zlar: *tarbiya, mehr, shaxs shakllanishi, psixologik yondashuv, ma’naviy tarbiya, pedagogik jarayon, ijtimoiy muhit, yoshlar tarbiyasi, axloqiy fazilatlar, ma’suliyatli shaxs.*

Annotation: *This article explores the profound spiritual and psychological essence of human upbringing and personality development through the folk proverb: “If clay is without water, it becomes dust; if blended with love, it becomes a wall.” In the article, clay is interpreted as a symbol of a person, while water represents knowledge and love. The unparalleled importance of compassion, patience, and attention in raising the younger generation is emphasized. Through this proverb, the author expressively conveys the responsibility of educators, psychologists, and parents in the upbringing process, highlighting the decisive role of the social environment, moral values, and psychological approaches in shaping the youth's character. The article underscores the power of love-based upbringing in forming a strong social stance, high moral standards, and a sense of social responsibility in young people.*

Keywords: upbringing, compassion, personality development, psychological approach, moral education, pedagogical process, social environment, youth upbringing, moral values, responsible personality.

Yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli, yetuk va vatanparvar inson sifatida shakllanishi zamirida avvalo oila, maktab va jamiyatning birgalikdagi tarbiyaviy ta'siri mujassamdir. Bu jarayonda mehr – ichki iliqlik, samimiyat va insoniylik timsoli sifatida alohida o'rinni egallaydi. Mehrsiz tarbiya – shaklsiz qolgan mehnat kabitidir. Zero, inson qalbini zabit etadigan, uni ezgulikka yetaklaydigan kuch bu – muhabbat va e'tibordir.

Shu ma'noda, "loy – suvsiz qolsa chang, mehr bilan pishsa devor" degan ibora faqatgina tashqi o'xshatish emas, balki inson tarbiyasining eng muhim tamoyillaridan birini anglatadi. Har bir bola yoki talaba – bu hali to'liq shakllanmagan, yo'naltirilishi lozim bo'lgan quvvatdir. Unga berilgan har bir e'tibor, aytilgan har bir so'z, ko'rsatilgan har bir g'amxo'rlik uning shaxsiyatida iz qoldiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog va psixologlarning vazifasi – yosh shaxsda ijobiy qiyofani shakllantirish, undagi tabiiy qobiliyat va salohiyatni yuzaga chiqarish, uni jamiyatga foydali inson sifatida tarbiyalashdir. Bu jarayon faqat bilim berish bilan cheklanmaydi; unda hissiy yondashuv, empatiya, motivatsiya, axloqiy mezonlar, shaxsiy yondashuv asosiy rolo 'ynaydi.

Bu hikmatli ibora inson va jamiyat, tarbiya va muhabbat, rivoj va bunyodkorlik o'rtasidagi chuqur bog'liqliknini ramziy tarzda ifodalaydi. Unda loy – inson, suv – bilim, mehr – tarbiya va muhabbat timsolida tasvirlangan. Suvsiz loy – o'z yo'lini topa olmagan, quruq, maqsadsiz holatdagi insondek, faqat chang bo'lishi mumkin. Ammo agar u mehr va e'tibor bilan qorilsa, ya'ni tarbiya, ta'lim, muhabbat va sabr bilan yo'naltirilsa – u mustahkam devorga, jamiyat poydevoriga aylanadi. Bu ibora tarbiyaning mohiyatini ramziy va ta'sirchan ifodalagan: har bir yosh – bu loy; agar unga mehr berilsa, u jamiyatning mustahkam devoriga aylanadi. Demak, tarbiyada muhabbat, sabr, e'tibor eng kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa ta'lim-tarbiya sohasida ishlayotgan pedagoglar, psixologlar uchun katta ma'naviy mezon bo'la oladi. Har bir yosh shaxs – bu hali shakllanmagan "loy", unga qanday munosabatda bo'linishi – uni qanday shaxsga aylantirishimizni belgilaydi. Mehr bilan qorilgan tarbiya, e'tibor bilan yo'naltirilgan bilim, ijobiy muhitda shakllangan ijtimoiy pozitsiya esa talaba

yoki o‘quvchini jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan mustahkam “devor”ga aylantiradi.

Bu ibora yosh avlodni tarbiyalashda mehr, sabr va e’tiborning o‘rni beqiyos ekanligini eslatadi. Inson tabiatan yumshoq, shakllanuvchan bo‘lib, u qanday “qorilsa” – ya’ni qanday tarbiya olsa, shunday shaxsga aylanadi. Agar yosh avlod befarqlik va e’tiborsizlik muhitida voyaga yetsa, u “chang” kabi tarqab ketadi – ya’ni hayotda o‘z yo‘lini yo‘qotishi, ijtimoiy beqarorlikka uchrashi mumkin.

Ibora tarbiya jarayonida o‘qituvchi, murabbiy va ota-onalarning rolini devor quruvchiga qiyoslaydi. Ular bolani “qorish” – ya’ni mehr, sabr, saboq, tarbiya berish orqali uning shaxsini quradilar. Bu jarayon ko‘p mehnat, e’tibor va muhabbat talab qiladi.

Shaxsni tarbiyalashda nafaqat bilim, balki axloqiy fazilatlar – hurmat, vijdon, insof, odob ham muhim. Mehr bilan pishgan “devor” nafaqat mustahkam, balki jamiyatga foydali bo‘ladi. Demak, shaxsni tarbiyalashda mehr-muhabbat asosiy tamoyillardan biri bo‘lishi kerak. Mehr va tarbiya asosida shakllangan yoshlar mustahkam g‘oyaviy pozitsiyaga ega, Vatanga sodiq, ijtimoiy mas’uliyatli, yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetadilar. Bu esa jamiyatning barqaror va farovon rivojlanishini ta’minlaydi.

Xulosa o`rnida bugungi globallashuv, tezkor axborot oqimi davrida yoshlarning qalbi va ongini to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni ma’naviy immunitetga ega, hayotda o‘z o‘rnini topa oladigan shaxs sifatida tarbiyalash – o‘ziga xos murakkab, ammo muqaddas jarayondir. Ana shunday sharoitda mehr va tarbiya asosidagi yondashuvlar, qadriyatlar asosida shakllanadigan shaxsiy pozitsiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, tarbiyada befarqlikka o‘rin yo‘q. Har bir pedagog va ota-onal esda tutishi kerakki, mehr bilan qorilgan har bir yosh – kelajakda mustahkam jamiyatning tayanchiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov A. A. Ta’limda tarbiyaning o‘rni va ahamiyati. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020y.
2. Rasulov A., Toshxo‘jayev B. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017y.
3. Yusupov M. M. Inson va psixologiya. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020y.

4. Karimova Z. Ma'naviy tarbiya va shaxs shakllanishi. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2021y.
5. Sharipova N. Ta’lim tizimida mehr asosidagi yondashuv. – Toshkent: “Innovatsiya”, 2022y.